



THE “ENLIGHTENMENT AGAINST IGNORANCE” CONCEPT AS A FACTOR IN THE FIGHT AGAINST RADICAL IDEAS

Alisher Kahramonovich Baymatov

Lecturer, Department of Philosophy

Spirituality, and Legal Education

Termiz State Pedagogical Institute

E-mail: alisherbaymatov20.05@gmail.com

Termiz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: enlightenment, ignorance, radicalism, extremism, religious tolerance, spiritual education, ideological processes.

Received: 04.05.26

Accepted: 05.05.26

Published: 06.05.26

Abstract: This article analyzes the content and essence of the “Enlightenment against Ignorance” concept and its importance in combating radicalism and extremist ideas in society. Ignorance is a factor that hinders the development of individuals and society, and the most effective way to eliminate it is to advance science and education. A worldview formed on the basis of enlightenment and science is considered one of the key factors in protecting young people from radical ideas. The research findings indicate the necessity of forming an effective immunity against extremism by strengthening spiritual and educational work.

“JAHOLATGA QARSHI – MA’RIFAT” KONSEPSIYASI RADIKAL G‘OYALARGA QARSHI KURASHISHNING OMILI SIFATIDA

Alisher Kaxramonovich Baymatov

“Falsafa, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasida o‘qituvchisi

Termiz davlat pedagogika instituti

E-mail: alisherbaymatov20.05@gmail.com

Termiz, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ma’rifat, jaholat, radikalizm, ekstremizm, diniy bag‘rikenglik, ma’naviy tarbiya, mafkuraviy jarayonlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Jaholatga qarshi – ma’rifat” konsepsiyasining mazmun-mohiyati, uning jamiyatda radikalizm va ekstremistik g‘oyalarga qarshi kurashishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Jaholat–inson va jamiyat taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi omil bo‘lib, uni yo‘qotishning eng samarali yo‘li ilm-ma‘rifatni rivojlantirish hisoblanadi. Ma‘rifat va ilm-fan asosida shakllangan dunyoqarash yoshlarni radikal g‘oyalardan himoya qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni kuchaytirish orqali ekstremizmga qarshi samarali immunitetni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

КОНЦЕПЦИЯ «ПРОСВЕЩЕНИЯ ПРОТИВ НЕВЕЖЕСТВА» КАК ФАКТОР В БОРЬБЕ С РАДИКАЛЬНЫМИ ИДЕЯМИ

Алишер Кахрамонович Байматов

Преподаватель кафедры философии

Духовности и правового воспитания

Термизский государственный педагогический институт

E-mail: alisherbaymatov20.05@gmail.com

Термиз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: просвещение, невежество, радикализм, экстремизм, религиозная терпимость, духовное воспитание, идеологические процессы.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность концепции «Просвещение против невежества» и ее значение в борьбе с радикализмом и экстремистскими идеями в обществе. Невежество является фактором, сдерживающим развитие личности и общества, и наиболее эффективным способом его искоренения является развитие науки и образования. Мировоззрение, сформированное на основе просвещения и науки, считается одним из ключевых факторов защиты молодежи от радикальных идей. Результаты исследования указывают на необходимость формирования эффективного иммунитета против экстремизма путем активизации духовно-воспитательной работы.

Kirish. XXI asrda global xavfsizlikka tahdid solayotgan muammolardan biri bu radikalizm va diniy ekstremizmdir. Bunday g‘oyalar ko‘pincha jaholat, diniy bilimning yetishmasligi hamda noto‘g‘ri talqinlar natijasida paydo bo‘ladi. Shu sababli zamonaviy jamiyatlarda ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali yo‘llaridan biri sifatida ma‘rifatga asoslangan yondashuv ilgari surilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham bu masalaga alohida e‘tibor qaratilib, “Jaholatga qarshi – ma‘rifat” tamoyili davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bu konsepsiya jamiyatda ilmiy bilim, ma‘naviy qadriyatlar va diniy bag‘rikenglikni rivojlantirish orqali radikalizmning oldini olishni nazarda tutadi.

Tadqiqotchi Yo‘ldoshev M. fikriga ko‘ra, “ekstremizmning ildizi ko‘pincha bilim yetishmasligi va diniy tushunchalarning noto‘g‘ri talqin qilinishiga borib taqaladi”[4.45-bet]. Shu sababli ma‘rifat asosida shakllangan ong ekstremistik mafkuralarga qarshi eng kuchli himoya vositasi hisoblanadi.

Islom mutafakkirlari ham jaholatning jamiyat rivojiga zararli ta‘siri haqida ko‘p bora ta‘kidlaganlar. Masalan, Imom Buxoriy ilmni insonni hidoyatga boshlovchi asosiy omil sifatida ta‘riflab, ilm olishni har bir musulmon uchun farz deb ko‘rsatgan[1]. “Jaholatga qarshi – ma‘rifat” konsepsiyasining radikal g‘oyalarga qarshi kurashishdagi rolini ilmiy jihatdan tahlil qilish mazkur maqolamizning maqsadi hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. Radikalizm va ekstremizm zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng o‘rganilayotgan dolzarb muammolardan biri bo‘lib, uning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy jihatlari turli yo‘nalishlarda tahlil qilinmoqda. So‘nggi yillarda esa bu muammoga qarshi kurashishda ayniqsa ma‘rifat, ta‘lim va ijtimoiy integratsiyaning muhim o‘rni alohida ta‘kidlanmoqda.

Ma‘rifat va ijtimoiy taraqqiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik klassik falsafada muhim o‘rin tutadi. Immanuel Kant ma‘rifatni insonning o‘z aqlidan mustaqil foydalanish qobiliyati sifatida talqin qilib, uni jamiyat rivojining asosiy sharti deb hisoblaydi [7]. Uning fikricha, tafakkurning erkin rivoji jaholat va mutaassiblikni bartaraf etadi, bu esa bugungi kunda radikalizmga qarshi kurashishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Islom falsafiy merosida ilm va ma‘rifat muhim o‘rin tutadi. Abu Nasr Forobiy jamiyat taraqqiyotini ilm va axloqiy kamolot bilan bog‘lab, ma‘naviy yetuklik barqarorlikning asosi ekanini ta‘kidlaydi [2]. Uning fozil jamiyat haqidagi qarashlari ilm va adolatga tayanadi va bu yondashuv radikalizmga qarshi ma‘rifiy kurashning ilmiy asosini mustahkamlaydi.

Diniy tafakkur tarixida ilm va aqlning ahamiyati alohida ta‘kidlanadi. Abu Mansur Moturidiy diniy masalalarni tushunishda aql va ilmiy yondashuv zarurligini ko‘rsatib, diniy bilimlarni to‘g‘ri talqin qilish mutaassiblikning oldini olishini ta‘kidlaydi [3]. Bu esa diniy savodxonlik radikalizmga qarshi kurashishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

So‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar ham radikalizm muammosiga alohida e‘tibor qaratmoqda. BMTning “Zo‘ravon ekstremizmning oldini olish bo‘yicha harakatlar rejasida”da ta‘lim va ijtimoiy rivojlanish radikallashtirishni bartaraf etishda asosiy omillar sifatida e‘tirof etilib,

yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish, ijtimoiy tenglik va bag'rikenglikni rivojlantirish muhim profilaktik choralar sifatida ko'rsatiladi [12].

UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham ta'lim tizimining radikalizmga qarshi kurashishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Tashkilot ekspertlarining fikriga ko'ra, ta'lim yoshlarni zo'ravon ekstremistik g'oyalardan himoya qiluvchi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi[13]. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash, bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Radikalizm fenomenini zamonaviy ilmiy metodlar asosida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, ayrim tadqiqotchilar radikal mafkuralarning tarqalishini ijtimoiy tarmoqlardagi kommunikatsiya jarayonlari bilan bog'lab, uni murakkab ijtimoiy "kontagioz" jarayon sifatida izohlaydi[11]. Bunday yondashuvga ko'ra, radikal g'oyalar axborot tarmoqlari orqali tez tarqalishi mumkin, shu sababli axborot makonida ma'rifiy qarshi narrativlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, yoshlar radikallasuvini o'rganishga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlar ijtimoiy muhit va oilaviy omillarning ahamiyatini ham ko'rsatmoqda. Ayrim ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilaviy barqarorlik va ta'limdagi muvaffaqiyat yoshlarning radikal g'oyalarga moyilligini kamaytiruvchi muhim omillar ekanligi ta'kidlangan[5].

Umuman olganda, o'rganilgan ilmiy adabiyotlar radikalizm muammosini ko'p qirrali ijtimoiy fenomen sifatida talqin qiladi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, radikalizmga qarshi kurashishda ta'lim, ma'rifat, diniy savodxonlik va ijtimoiy barqarorlik muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli "Jaholatga qarshi – ma'rifat" konsepsiyasi radikalizmga qarshi kurashishning ilmiy asoslangan va samarali strategiyalaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tahlil va sintez hamda tizimli yondashuv metodlari asosida radikalizm va ma'rifat o'rtasidagi qarama-qarshilik o'rganilib, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning profilaktik roli baholandi. BMT ekspertlari ham ta'lim va ma'rifetni ekstremizmning oldini olishda muhim omil sifatida e'tirof etib, barqaror jamiyat uchun yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish zarurligini ta'kidlaydi [12].

Muhokama va natijalar. "Jaholatga qarshi – ma'rifat" konsepsiyasi radikal g'oyalarga qarshi kurashishda muhim nazariy va amaliy omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi, chunki radikalizm ko'pincha jaholat, noto'g'ri diniy tasavvurlar va tanqidiy fikrlash yetishmasligi bilan bog'liq. Ma'rifat esa inson tafakkurini rivojlantirib, uni manipulyativ g'oyalardan himoya qiladi. Falsafiy jihatdan, u ratsional fikrlash va axloqiy mas'uliyatni shakllantiradi. Immanuel Kant ta'kidlaganidek, ma'rifat insonning o'z aqlidan mustaqil foydalanish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, bu esa

shaxsga ekstremistik g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi [7]. Shu asosda ma'rifat shaxsda zararli mafkuralarga qarshi mustahkam ma'naviy va mafkuraviy immunitetni shakllantiradi.

Diniy savodxonlik radikalizmning oldini olishda muhim omil hisoblanadi, chunki ekstremizm ko'pincha diniy bilimlarning yuzaki yoki noto'g'ri talqin qilinishidan kelib chiqadi. Ayrim guruhlar diniy matnlarni kontekstdan uzib talqin qilish orqali yoshlarni o'z safiga jalb etadi. Holbuki, islom tafakkurida ilm va ma'rifat ustuvor o'rin tutadi: Abu Nasr Forobiy ilmni inson kamolotining asosi [2]deb bilgan bo'lsa, Imom Moturidiy diniy masalalarni anglashda aql va ilmiy yondashuv zarurligini ta'kidlaydi [3]. Shu bois diniy savodxonlikni oshirish radikalizmga qarshi samarali profilaktik choradir.

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya yoshlarni radikal g'oyalardan himoya qiluvchi muhim ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatda ma'naviy qadriyatlarning mustahkamligi shaxsning ijtimoiy mas'uliyatini oshirib, uning ekstremistik ta'sirlarga berilish ehtimolini kamaytiradi. Shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya va milliy qadriyatlar kuchli bo'lgan muhitda radikalizm darajasi past bo'ladi. Falsafiy jihatdan esa ma'naviy tarbiya insonda axloqiy ong va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirib, radikal g'oyalarning ijtimoiy asoslarini zaiflashtiradi.

Ma'rifat jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat va madaniy muloqotni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Radikalizm esa aksincha, "biz va ular" kabi qarama-qarshi qarashlarga tayanadi. Ma'rifat insonni turli madaniyat va dinlarni anglash va hurmat qilishga o'rgatadi. Volter ham bag'rikenglikni jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida baholab, taraqqiyot uchun erkin fikr va ilm zarurligini ta'kidlagan [10]. Shu bois, global dunyoda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish radikalizmga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy davrda radikal g'oyalar asosan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda, shu bois axborot makonida ma'rifiy kontentni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Media savodxonlik esa shaxsga axborotni tanqidiy tahlil qilish, uning ishonchligini baholash va manipulyativ ta'sirlardan himoyalaniish imkonini beradi. Shu sababli ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va ma'naviy tarbiyani rivojlantirish radikalizmga qarshi samarali vosita hisoblanadi.

Zamonaviy ilmiy qarashlarga ko'ra, radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashishda ta'lim, ma'rifat va ijtimoiy institutlar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. "Jaholatga qarshi – ma'rifat" konsepsiyasi esa aynan shu yondashuvga tayangan holda radikalizmning ijtimoiy va mafkuraviy ildizlarini bartaraf etishga xizmat qiluvchi kompleks model sifatida namoyon bo'ladi. Radikalizm falsafiy jihatdan axborot manipulyatsiyasi, identitet inqirozi va ijtimoiy marginalizatsiya bilan bog'liq hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, ma'rifat insonda

tanqidiy fikrlash, ongli qaror qabul qilish va axloqiy mas'uliyatni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlar ham ta'lim tizimi radikallashuvning oldini olishda nafaqat bilim beruvchi, balki bag'rikenglik va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantiruvchi asosiy ijtimoiy institut ekanligini tasdiqlaydi [9]. Shuningdek, xalqaro tashkilotlar, jumladan UNESCO, ta'limni ekstremizmga qarshi kurashning muhim vositasi sifatida e'tirof etib, u yoshlarni radikal g'oyalarga qarshi barqarorlik ruhida tarbiyalashini ta'kidlaydi [13]. Shu jihatdan, bilim va ma'naviy qadriyatlarning kuchayishi natijasida radikal mafkuralar uchun ijtimoiy zamin torayib borishi "ma'rifiy transformatsiya" jarayoni sifatida izohlanadi. So'nggi tadqiqotlar yoshlar radikallashuvi iqtisodiy tengsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, identitet inqirozi va internetdagi targ'ibot kabi omillar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Xususan, 2024-yilgi tadqiqotga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar, iqtisodiy muammolar va jamiyatda o'z o'rnini topishga intilish bu jarayonga sezilarli ta'sir qiladi [5]. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi ta'lim yoshlarni radikal g'oyalarga qarshi himoya qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Yoshlar radikallashuvining oldini olishda oila, ta'lim muassasalari va mahalla kabi ijtimoiy institutlar hamkorligi muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, oila va jamiyat darajasidagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash radikalizmga qarshi samarali himoya mexanizmi hisoblanadi [8].

Hozirgi davrda radikalizmga qarshi kurashishda profilaktik yondashuv muhim o'rin tutib, u faqat kuch ishlatish emas, balki ijtimoiy va ma'rifiy choralarni ustuvor deb biladi. 2025-yildagi meta-tahlilga ko'ra, yoshlarni radikallashuvdan himoya qiluvchi asosiy omillar sifatida ta'limdagi muvaffaqiyat, ijtimoiy faollik, sog'lom oilaviy muhit, adolat tuyg'usi va jamiyatdagi ijobiy muloqot muhim ahamiyat kasb etadi [6].

Bu omillar yoshlarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirib, radikal g'oyalarga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi.

Shu jihatdan qaraganda, "Jaholatga qarshi – ma'rifat" konsepsiyasi nafaqat mafkuraviy, balki ijtimoiy profilaktika modeli sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy davrda radikal g'oyalar ko'pincha internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilmogda. Ayniqsa, ekstremistik mafkuralar ko'pincha axborot manipulyatsiyasi va propagandaga asoslangan kommunikatsiya strategiyalari orqali yoyiladi. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, radikal g'oyalar jamiyatda "ijtimoiy infeksiya"[11] kabi tarqaladi, ya'ni ular muloqot jarayonida odamdan odamga o'tib, kengayib boradi. Shu bois, bunday tahdidlarga qarshi kurashishda axborot makonida ma'rifiy va asosli qarshi fikrlarni shakllantirish muhim bo'lib, bunda ta'lim tizimi, OAV, ilmiy muassasalar va diniy tashkilotlarning o'zaro hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Radikalizm va ekstremizm ko‘pincha jaholat, diniy savodsizlik hamda ijtimoiy va axborot omillari ta‘sirida shakllanadi. Shu bois, ularga qarshi kurashishda ma‘rifatga asoslangan yondashuv samarali hisoblanadi. Ma‘rifat insonda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas‘uliyat va bag‘rikenglikni rivojlantirib, ayniqsa ta‘lim va diniy savodxonlik orqali yoshlarni radikal g‘oyalardan himoya qiluvchi mafkuraviy immunitetni shakllantiradi. Yoshlar radikallashuvining oldini olishda oila, ta‘lim muassasalari, fuqarolik jamiyati va OAV hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda ijtimoiy adolat, barqaror muhit va mustahkam ma‘naviy qadriyatlar radikalizmning ildizlarini zaiflashtiradi. Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlarda radikal g‘oyalar tarqalishini hisobga olib, ma‘rifiy faoliyatni kuchaytirish, media savodxonlikni rivojlantirish va tanqidiy fikrlashni oshirish zarur. Umuman, “Jaholatga qarshi – ma‘rifat” konsepsiyasi radikalizmga qarshi kurashda jamiyat barqarorligi va tinchligini ta‘minlovchi muhim kompleks yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Imom Buxoriy. Al-jome‘ as-sahih. – 1-jild.
2. Forobiy Abu Nasr. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 156 b.
3. Imom Moturidiy. Kitob at-Tavhid. – Istanbul, 2003.
4. Yo‘ldoshev M. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash asoslari. – T., 2019. – 45 b.
5. Bilgin O., Zorlu M., Yorulmaz R. Youth Radicalization and Approaches to Prevention. – Kafkas University Journal, 2024.
6. Hanne M. Duindam, Amanda WG. Van Loon, Fridrix Losel. “Protective Factors Against Extremism and Violent Radicalization in Youth: A Meta-Analysis”. – Aggression and Violent Behavior, 2025.
7. Kant I. An Answer to the Question: What is Enlightenment? – Berlin, 1784.
8. Khan A., Qasim M., Wasif M., Shah I. “Exploring the efficacy of family dynamics in mitigating violent extremism”. – Russian Law Journal, 2024.
9. Sas M., Ponnet K., Reniers G., Hardyns W. “The Role of Education in the Prevention of Radicalization and Violent Extremism in Developing Countries.” – Sustainability, 2020.
10. Voltaire. Treatise on Tolerance. – Paris, 1763. Youngblood M. Extremist Ideology as a Complex Contagion. – 2020.
11. Youngblood M. Extremist Ideology as a Complex Contagion. – 2020.
12. United Nations. Plan of Action to Prevent Violent Extremism. – 2015.

13. https://www.unesco.org/en/preventing-violent-extremism?utm_source.